



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 13-noyabr, payshanba,
129 (24.159)-son

O'zbek xalq
maqoli

Mehnatsiz
hikmat
yo'q



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



Viloyat hokimi Kengashga hisobot berdi

**12-noyabr kuni xalq deputatlari viloyat
Kengashining yigirmanchi sessiyasi o'tkazildi.
Sessiya ishini Kengash raisi Sh.Negmatov
boshqardi.**



Deputatlar bilan birga viloyat hokimi o'rinbosarlari, boshqarma va idoralar rahbarlari ishtirok etgan sessiyada dastlab viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev joriy yilning to'qqiz oyida viloyatni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan amalga oshirayotgan ishlar yuzasidan hisobot berdi.

Viloyat hokimining qayd etishicha, 9 oy yakuni bilan viloyatning yalpi hududiy mahsulot hajmi 87,5 trillion so'mni (107,7 foiz)ni tashkil etib, sanoat hajmi 7,8 foiz, qishloq xo'jaligi 3,9 foiz, xizmatlar hajmi 14,1 foiz va qurilish hajmi 22 foiz o'sishi ta'minlandi. Umumiy budget daromadlari 4,7 trillion so'mga (106,4 foiz), mahalliy budget daromadlari esa 4,6 trillion so'mga (108,8 foiz) yoki 373,5 milliard so'm orttirib bajarildi.

A.Boboyev o'z hisobotida iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birga ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar haqida ham batafsil ma'lumot berdi.

Deputatlar hisobot yuzasidan viloyat rahbariga murojaat qilib, o'zlarini qiziqitrgan savollarga javob oldilar.

Shundan so'ng o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilib, tegishli qonunga ko'ra, Kadastr agentligining "E'tirof" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kelib tushgan hujjatlar asosida 331 nafar fuqaroning mulk huquqi qonuniy tartibda e'tirof etildi.

Sessiyada Samarqand viloyati mahalliy budgetining 2025-yil hisobidan maqbullashtirilgan mablag'larni yo'naltirish to'g'risidagi masala ham muhokama qilinib, qaror qabul qilindi.

HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH, AHOLI UCHUN MUNOSIB SHAROIT YARATISH – ASOSIY VAZIFAMIZ

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyevning xalq deputatlari viloyat Kengashining yigirmanchi sessiyasidagi joriy yilning to'qqiz oyida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'ruzasi

**Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!
Sessiya ishtirokchilari!**

Yurtboshimiz tomonidan aholi turmush farovonligini oshirish, bandligini ta'minlash, yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash hamda ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida mazkur sohalarini qamrab olgan 160 dan ortiq qaror va 100 ga yaqin farmonlar qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlar bilan viloyatimizning har bir tumaniga bir yilda o'rtacha 55-60 milliard so'm mablag' ajratildi.

Joriy yil 9 oy yakuni bilan viloyatning yalpi hududiy mahsulot hajmi 87,5 trillion so'mni yoki o'sish sur'ati 107,7 foizni tashkil etdi. Bunda, sanoat hajmi 7,8 foizga, qishloq xo'jaligi 3,9 foizga, xizmatlar hajmi 14,1 foizga va qurilish hajmi 22 foizga o'sishi ta'minlandi.

Viloyatda umumiy budget daromadlari 4,7 trillion so'mga (106,4 foiz), mahalliy budget daromadlari esa 4,6 trillion so'mga (108,8 foiz) yoki 373,5 milliard so'mga orttirib bajarildi.

Shu o'rinda, viloyatimizda yashirin iqtisodiyot ulushi sezilarli darajaga kelib qolganligini ham ta'kidlab o'tmoqchiman. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va budjetga qo'shimcha manbalarni aniqlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, zarur choralar ko'rilmogda.

Yil boshida aniqlangan 25 ta yo'nalishdagi qo'shimcha manbalar hisobidan 2 trillion so'mdan ortiq mablag' undirildi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda siz, deputatlar va jamoatchilik bilan birgalikda ishlarni tubdan o'zgartirib, tizimli ishlarni tashkil etmasak, iqtisodiyotning barcha sohalarida orqada qolish davom etaveradi.

Hurmatli deputatlar!

Bugungi islohotlarning asosiy mazmuni ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'lib, o'tgan 9 oy davomida 294,7 ming ishsiz aholining bandligi ta'minlandi. Natijada ishsizlik darajasi yil boshidagi 5,4 foizdan 4,8 foizga qisqardi.

Bunda asosan investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga 15,8 ming, tadbirkorlikni rivojlantirishda 202,7 ming, qishloq xo'jaligida 64,3 ming va qurilishda 11,9 ming nafar aholi bandligi ta'minlandi.

Ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitishning vaucher tizimi asosida 5 mingdan ortiq aholi 35 turdagi kasb-hunar va xorijiy tilga o'qitildi va bandligi ta'minlandi.

Mahallalarda aniqlangan 17,3 ming nafar ishsiz fuqarolar bilan to'rt tomonlama shartnomalar imzolani, ularning har biri bilan alohida shug'ullanish evaziga 11,7 ming nafar (68 foiz) ishsizlarning bandligi ta'minlandi.

73,3 mingta kichik va o'rta biznes subyektlariga 7,3 trillion so'm, aholini biznesga jalb qilish uchun qariyb 2 trillion so'm kreditlar ajratildi.

Yil yakuniga qadar barcha imkoniyatlarni safarbar etgan holda 320 mingdan ortiq aholi bandligi ta'minlanib, ishsizlik darajasi 5,4 foizdan 4,5 foizga qisqartirildi.

Yil boshidan buyon 18 ming nafar fuqaro qonuniy tartibda Buyuk Britaniya, Koreya, Germaniya, Slovakiya, Yaponiya, Bolgariya, Xorvatiya kabi davlatlarga yuborilib, yuqori daromadli ishga joylashtirildi.

Xorijda past daromad topayotgan 120 ming nafar fuqaroni yurtimizga qaytarib, 73 ming nafari daromadli ish bilan ta'minlandi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 36,7 ming oilani kambag'allikdan chiqarib, kambag'allik darajasini 7,5 foizdan 4,0 foizga tushirish kutilmogda. Buning uchun reestrga kiritilgan kambag'al oilalarning har biri bo'yicha "individual reja" ishlab chiqilib, 1086 ta tashkilot rahbar va o'rinbosarlariga biriktirildi.

Ushbu rahbarlar ko'magida 65,9 ming oilaga barqaror bandlik xizmatlari ko'rsatildi. Natijada 36,7 ming nafar oila kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 4,8 foizga tushirildi.

Qadrlil deputatlar!

Iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va viloyatimiz eksport salohiyatini yanada oshirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmogda.

Xususan, joriy yilda iqtisodiyotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan 104 ta loyiha hisobiga 1,1 milliard dollar (78,5 foiz) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

Shuningdek, qiymati 613 million dollarlik 18 ta yirik va ahamiyatli loyiha amalga oshirilmogda. Bugungi kunda ushbu loyihalarning 297 million dollarlik 8 tasi ishga tushirilib, 705 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Masalan, Samarqand shahrida "Azia Metall Prof" korxonasida qiymati 220 million dollarlik import o'rini bosuvchi maishiy texnika va avtomashinalar uchun tunuka list, rux va polimer qoplamali tunuka ishlab chiqarish, Samarqand tumanida "Intramred" MChJ tomonidan qiymati 12 million dollarlik tibbiy markaz tashkil etish, Oqdaryoda "Alkan finans investments" MChJning qiymati 7 million dollarlik partiyumeriya va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirildi.

Hududiy investitsiya dastur doirasida qiymati 954,2 million dollarlik 770 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 14765 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi.

Joriy yilda viloyatning eksport hajmini 1 milliard dollarga yetkazish belgilab olingan. Hisobot davrida 713,8 million dollarlik mahsulotlar eksport qilindi. Eksport hajmi o'tgan yilga nisbatan 30 foizga oshdi.

Shu bilan birga, umumiy preferensiyalar tizimi plyus (GSP+) imkoniyatidan foydalanib, 30 million dollarlik mahsulotlar Yevropa davlatlariga eksport qilindi.

Hurmatli deputatlar!

Turizm viloyatimizning asosiy drayver sohasi hisoblanib, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida viloyatimizga kelayotgan sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormogda. 9 oy davomida 2,6 million nafar xorijiy, 5,1 million nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurib, ularning soni qariyb ikki barobarga oshdi. Sayyohlarning qolish kunlari 2,6 kundan 3 kunga, turizm xizmatlari eksporti 538,2 million dollarga yetib, 79 foizga oshdi. Turistlarni keng jalb etish maqsadida joriy yilning o'zida 40 ga yaqin madaniy ko'ngilochar tadbirlar va festivallar o'tkazildi. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan Urgutdagi Tersak va Omon-qo'ton, Nurobod tumanidagi Oqsoy mahallalariga turizm qishlog'i maqomi berildi.

Viloyatda yil boshidan buyon 194 ta mehmonxona, xostel va oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning soni 822 taga, o'rinar soni esa 21 mingtaga yetkazildi. 63 ta yangi turizm kompaniyalari faoliyati yo'lga qo'yildi va ular jami 452 ta bo'ldi.

Hurmatli xalq vakillari!

Viloyatda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasini oshirish, tadbirkorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida keng miqiyosda qurilish bunyodkorlik ishlari olib borilmogda. Joriy yilda 12500 xonadonli 181 ta ko'p qavatli uyni foydalanishga topshirishni rejalashtirganmiz. 95 ta uy-joy foydalanishga topshirildi. Renovatsiya dasturi asosida Samarqand shahri temiryo'l orti hududida 16 ming nafar aholi yashaydigan 301 gektar yer maydonida 100 ming aholiga mo'ljallangan shaharcha barpo etish boshlandi.

Kelgusida ushbu hududning arxitekturaviy qiyofasi zamonaviy ko'rinishga kelishi bilan birga, aholi uchun 4 ta xiyobon, 8 ta tibbiyot muassasasi, 32 ta bog'cha va 5 ta maktab quriladi.

Samarqand shahrining boshqa hududlarida ham yangi massivlar qurishni boshlayapmiz. Misol uchun, Shirin massividagi 665 gektar hududda 180 ming aholiga mo'ljallangan 250 dan ziyod baland qavatli uy-joylar, 40 dan ortiq ijtimoiy soha obyektlari, 25 dan ortiq mehmonxona, ishbilarmonlik va biznes markazlari, sport majmualari quriladi.

Hozir viloyat ma'muriy markazini ham Shirin massiviga ko'chirish ustida ishlayapmiz. Birinchi bosqichda 100 gektarda qurilish ishlari boshlanadi.

Qorasuv massivi ham kengaytiriladi. Hozir massivning 36,6 gektar hududida 30 mingdan ortiq aholiga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" massivi barpo qilinmogda. 2026-yildan 24 gektar hududda 22 ming aholiga mo'ljallangan turarjoylar qurilishining ikkinchi bosqichi boshlanadi. Ushbu bosqichda hududda 6200 xonadonli 55 ta ko'p qavatli uy, 3300 o'rinni 2 ta maktab, 2 ta bog'cha, oilaviy poliklinika, sport maydonchalari, savdo-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari quriladi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

**Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan
tashkil etilgan uchrashuvda Prezident davlat
mukofotlarini topshirib, sohada kelgusida
amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalarni
belgilab beradi, bir kun avval qabul qilgan
qarori mazmun-mohiyatini tushuntiradi,
deya o'ylagandim. Boshqalar ham, jumladan, zaldagi ishtirokchilarning asosiy qismini tashkil etadigan tibbiyot xodimlari ham shunday fikrda edi, nazarimda.**

Shunday bo'ldi ham. Barcha hududlar bilan video-selektor tarzida o'tkazilgan uchrashuv avvalida Prezident davlat mukofotlarini topshirdi. Soha xodimlarining zahmatli mehnatlarini e'tirof etdi. Bundan buyon ushbu sanani "Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kuni" sifatida nishonlashni taklif qildi.

Keyingi yillarda tibbiyot sohasida erishilgan olamshumul natijalar (olamshumul deyishga asoslar ham keltirildi, buni hech kim inkor etmaydi) ayrim raqamlar orqali qayd etildi. Keyin davlat rahbari erishilgan natijalar tarix bo'lgani, endi mavjud kamchiliklarni tuzatish, soha oldiga yangi marralar qo'yib harakat qilish zarurligini ta'kidladi.

Ko'nglidagi achchiq gaplarni ham aytishga majburligini ta'kidlab, tibbiyot davlat va xalq o'rtasida ko'prik bo'lishi kerak, degan g'oya bugun hayotda o'z ifodasini topayotgani, lekin ayrim rahbarlar buni anglamayotgani, o'z huzur-halovatidan voz kech olmayotgani to'g'risida og'rinib gapirdi.

TIBBIYOT SOHASI RAQAMLASHSA, KORRUPSIYA YO'QOLADI

Davlat rahbari mamlakatimiz tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan uchrashuvda bu gapni qayta-qayta ta'kidladi

Prezidentimiz jamiyatda o'qituvchi va shifokorning nufuzi va mavqeini oshirishni o'z faoliyatining dastlabki paytlaridan qo'llab-quvvatlash maqsad etib belgilagan va bu ishni bosqichma-bosqich amalga oshirayotganini aytdi. Buning uchun budgetdan ham juda katta mablag' ajratilayotgani, xalqaro tashkilotlar va banklar kreditlari yo'naltirilayotganini qayd etdi.

O'n yil oldin sohada bugungidek imkoniyat, sharoit, texnologiya, pul yo'q ediku, oylik maosh ham yildan-yilga oshib boryapti va bu davom etadi. Lekin bunga javob qanaqa bo'lyapti? Afsuski, bu savolga javob berishga qiynaladi, odam, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz 26 ta ixtisoslashgan markaz faqat poytaxtda emas, joylarga chiqib, eng quyi bo'g'inda ishlashi kerakligini ta'kidladi. Xuddi shunday – ularning filiallari ham o'z ixtisosligi bo'yicha qaysi tuman, shaharda aholining salomatlik darajasi og'ir bo'lsa, o'sha joydagi poliklinikalar bilan aniq dastur asosida ishlashi zarur.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari ayrim ixtisoslashgan

markazlar rahbarlari faoliyatidan qoniqmayotgani, ularning o'z vazifasiga vijdonan yondashmayotganini kuyinib gapirdi. Ayrim rahbarlar o'ziga juda katta miqdorda oylik yozib olayotganini, bu bilan ular o'zlariga nisbatan ishonchni poymol qilayotgani, xalqning nafratiga duchor bo'layotganiga urg'u berdi.

– Prezident, davlat hech narsa bilmaydi, deb o'ylamanglar. Arqon uzun tashlangan, vaqti kelganda shunday tortib olamiz, lekin u paytda kech bo'ladi, – dedi Yurtboshimiz.

Yig'ilishda yaxshi bir taklif aytiladi. Prezidentimiz malakali shifokorlar, mutaxasssilar sog'liqni saqlash boshqarma va bo'limlari, tibbiy markazlar rahbarligiga tayinlanib, ular tashkiliy ishlardan ortmayotgani, o'zining kasbiy malakasidan foydalana olmayotganini ta'kidlab, aslida rahbarlik vazifalarini menejerlar bajarishi, ular shifokorlarning samarali ishlashi, bemorlarning tezda sog'ayib ketishi uchun sharoit yaratishi, tibbiy muassasalar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun qayg'urishi zarurligini aytdi. Va, kelgusi yildan shunday

tizim yo'lga qo'yilishi bildirildi.

Yig'ilishda eng ko'p tilga olingan masala – sohani raqamlashtirish va bu orqali korruptsiya holatlarning oldini olish bo'ldi. Prezidentimiz soha rahbarlarini xalqqa xizmat qilishga da'vat etdi, davlatning tibbiyot sohasiga e'tiborini odamlar o'z hayotida his qilishi uchun vazifasini vijdonan bajarishi kerakligini aytdi.

Davlatimiz rahbari qo'lida ma'lumotlar bo'laturib, ko'p rahbarlarni ayadi, ularga ishlashi, xalqqa xizmat qilishi uchun yana imkoniyat berdi, nazarimda. Bundan kim qanday xulosa chiqarishini vaqt ko'rsatadi, albatta.

Darvoqe, uchrashuvda ayrimlar doimiy, hisobot gaplarni gapira boshlaganda Shavkat Mirziyoyev "Bu yerga sizlar bilan muloqot qilish, muammolarga yechim topish uchun kelganman. Ko'proq takliflar ayttinglar, masalalarni o'rtaga tashlanglar", deb o'zi davraga yuzlandi va ishtirokchilar bilan samimiy muloqot qildi. Ayniqsa, yoshlarning fikrlari, takliflarini e'tibor bilan tinglab, hech bir masalani yechimsiz qoldirmadi.

Uchrashuv davomida bir narsaga takror amin bo'ldim. Prezidentimiz yosh bo'lsa ham sadoqatli, Vatani uchun, xalq uchun xizmat qilishga tayyor, vijdoni pok, qo'li toza yoshlarga katta ishonch bildirmogda va doim ularni qo'llab-quvvatlashga tayyor. Yo'qsa, yig'ilishga yakun yasab, o'z xulosalarini aytmoqchi bo'lganida so'z so'rab qo'l ko'targan yoshlarni tinglamagan, ular o'rtaga tashlagan masalalarga yechim topib bermagan bo'lardi.

G'olib HASANOV.

Kun mavzusi



O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati 1925-yil 14-noyabrda tashkil etilgan bo'lib, dastlabki yillarda jamiyat o'sha davrda hukm surgan o'lat va vaboga qarshi kurashish, aholining sanitariya holatini yaxshilash bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish kabi vazifalarni bajargan. Aynan o'sha yillarda uning moddiy-texnik bazasi ham shakllana boshlagan. Jumladan, jamiyat birinchi sanitariya aviatsiyasi, dizenfeksiya stansiyalari, qadoqlash sexlari, tish davolash muassasalariga ega bo'lgan. 1940-yilga kelib, O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati kuchli moddiy-texnik bazaga ega bo'lgach, uning barcha xo'jalik korxonalari sog'liqni saqlash muassasalari ixtiyoriga o'tkazilgan.

1941-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati front uchun tibbiyot xodimlarini va sanitar drujinalarini tayyorlab bergan.

Undan keyingi davrlarda Armaniston (Spitak), Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkiya, Eron kabi mamlakatlarda sodir bo'lgan kuchli yer silkinishlari, ko'chki, suv toshqinlari kabi tabiiy ofatlarda O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati salmoqli insonparvarlik yordamlarini ko'rsatgan. 2024-yilning fevral oyida Turkiyada sodir bo'lgan halokatli zilziladan zarar ko'rgan aholi uchun maxsus reytsda yig'iladigan karavotlar, chodirlar, osh-xona jihozlari, ko'rpa-to'shak to'plamlari, oilaviy gigiyena to'plamlaridan iborat muruvvat yordamlarini jo'natdi.

1992-yil 30-mayda O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining XVII Qurultoyi mustaqil jamiyatning yangi Nizomi va maqomini qabul qildi.

1995-yil dekabr oyida O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati Xalqaro Federatsiya-ni 165-a'zosi etib qabul qilindi. Xalqaro Federatsiya-ni favqulodda vaziyatlar

Ijtimoiy hayotni boshqarishda

davlat organlarining ishonchli ko'makchisi



bo'yicha Komissiyasi a'zosi bo'ldi va jamiyat Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahar va Temiryo'l tashkilotlarini birlashtirdi. Har bir shahar va tumanda boshlang'ich tashkilotlar tuzildi.

Bugun jamiyatning viloyat tashkiloti aholini ijtimoiy himoyalashda davlat organlariga yaqindan yordam ko'rsatib kelmoqda. Keyingi uch yil mobaynida Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy jamiyatlari Federatsiyasi bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyo davlatlarida mahalliy darajada tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish orqali mahallalar barqarorligini kuchaytirish" loyihasi bo'yicha Samarqand shahri, Jomboy, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Urgut tumanlaridagi favqulodda holatlar sodir bo'lishi ehtimoli ko'proq bo'lgan 20 ta mahalla va ularning hududlaridagi maktablarda favqulodda vaziyatlarda qutqarish, birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha o'quv va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Ushbu mahalla va maktablarga favqulodda vaziyatlarda foydalanish uchun 141 million so'mlik asbob-uskunalar va jihozlar yetkazib berildi.

Samarqand shahridagi 8 ta mahallada ariqlar tozalani, suv yo'llari ochildi. Sel oqibatida to'plangan suv xonadonlarga kirmasligi uchun monolit devor barpo qilindi, lotoklar o'rnatildi va suvni chiqarib yuborish quvurlari yotqizildi, suv yig'ish quduqlari kovlandi.

Bulung'ur tumanidagi Amir Temur, Istiqlol, Lalimkor, Olmazor, G'o'bdin mahallalarida, Samarqand shahridagi Hofiz Sheroziy, Ko'ksaroy, Sayidmahalla, Toyloq tumanidagi Gulobod mahallalari va ular hududidagi maktablarda aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatishga o'rgatish, tabiiy ofatlar-ni oldini olishga qaratilgan keng ko'lamdagi faoliyat davom etmoqda.

Jamiyatning viloyat tashkiloti qoshida favqulodda vaziyatlarda mahalliy darajada qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan 162 nafar volontyor ko'ngillilar tayyorlandi.

Viloyat tashkilotida "Mehr-shafqat xizmati" guruhi qaramog'iga olingan, moddiy yordam so'rab kelgan 1075 nafar fuqaroga 180 million so'mdan ortiq pul mablag'lari, oziq-ovqat mahsulotlari, xo'jalik buyumlari tarqatildi.

Oliy Majlis jamoat fondining "Rahm-shafqat xizmati" granti mablag'lari hisobidan 20 million so'mlik nogironlik aravachalari, tanometr, qo'tiqtaqoq, hassadan iborat reabilitatsiya jihozlari va sanitar gigienik vositalar xarid qilindi.

Keksalarni va imkoniyati cheklangan shaxslarni parvarishlovchi xodimlarni tayyorlash bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilib, ularda 575 nafar fuqaro favqulodda holatlarda birinchi yordam ko'rsatish asoslariga o'rgatildi.

Munira ORIPOVA,
O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati viloyat tashkiloti raisi.



Til — fikr, madaniyat va tarjima jarayonlarini birlashtiruvchi ko'pri

Chet tilini o'rganish jarayoni nafaqat xorijiy tilda gapirish, tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalarini egallashdan iborat, balki inson tafakkurining kengayishi, madaniyatlararo muloqotning mustahkamlanishi, aqliy falsafaning boyishidir. Bugungi global ilmiy makonda tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari — lingvodidaktika, lingvofalsafa va tarjimashunoslik bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda.

Tilni o'rganish orqali inson boshqa xalqlarning madaniyatiga, tarixiga, falsafasiga va ijtimoiy hayotiga kirib boradi. Shu jihatdan til o'z mohiyatiga ko'ra, insoniyatni birlashtiruvchi vosita, tafakkur va ma'naviyatni bog'lovchi ko'pri. Chet tili o'qitish jarayoni esa bu ko'pri-ni amalda mustahkamlaydigan didaktik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Joriy yilning 25-noyabr kuni Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz filologiyasi kafedrasidan "Tilshunoslikda lingvodidaktika, lingvofalsafa hamda tarjimashunoslik jarayonlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Unda Buyuk Britaniya, AQSh, Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston, Hindiston, Koreya Respublikasi kabi mamlakatlardan yigirmaga yaqin, respublikamiz oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlaridan ellikka yaqin vakillarning ishtirok etishi rejalashtirildi.

Anjumanda "Lingvofalsafa va madaniyatlararo muloqot: tilshunoslikning

nazariy va amaliy jihatlari", "Zamonaviy lingvistika: nazariy asoslar va amaliy qo'llanilish", "Lingvodidaktika: chet tilini o'qitishda raqamli texnologiyalar va zamonaviy tendensiyalar", "Tarjimashunoslikning lingvistik va madaniy jihatlari: nazariyadan amaliyotga" kabi mavzularda ma'ruzalar o'qiladi. Mutaxassislar hamkorligida tilshunoslikda lingvodidaktika, lingvofalsafa va tarjimashunoslik jarayonlarining o'zaro uyg'unlashuvi zamonaviy ta'limning ilmiy asosini tashkil etish yo'llari muhokama etildi.

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman chet tillarini o'rganish sohasidagi dolzarb muam-molarni ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yoritish, ularning yechimiga oid yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va chet tillarini o'qitish bo'yicha xalqaro tajribalar-ni tahlil qilish orqali mazkur yo'nalishning keyingi rivojiga ilmiy asos yaratadi.

Aziz LATIPOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz filologiyasi kafedrasidir.

REKLAMA, E'LOMLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI VA MEHMONLARI DIQQATIGA!

Hozirgi kunda Samarqand viloyati hududiga tegishli ruxsatnomasiz va sertifikatlasiz olib kirilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalar, jumladan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeaterlar) ko'payib ketganligini inobatga olgan holda, Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Mobil kuchaytirgich (repeater)lar O'zbekiston Respublikasi Radiochastotalar bo'yicha Respublika Kengashining 2022-yil 23-avgustdagi 707-sonli qarorining 1-bandida keltirilgan texnik shartlar talablariga mos ravishda o'rnatilgan bo'lishi va boshqa turdagi radioelektron vosita (REV)larga radioalaqitlar bermasligi kerak. Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarni bajarish hamda mobil aloqa tarmoqlariga xalaqitli ta'sirlar keltirmaslik talablariga majburiy rioya qilgan holda mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish va o'rnatish bo'yicha ishlarni bajarishga (shu jumladan, ularga xizmatlar ko'rsatishga) faqat faoliyat turi bo'yicha tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yoki mobil aloqa operatorlari nomidan shartnoma asosida ish yurituvchi yuridik shaxslarga ruxsat etilishi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos keladigan retranslyator qurilmalarini xorijdan olib kirish, radiochastota organlarining o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan olib kirish ruxsatnomasiga asosan amalga oshirilishi;

Retranslyator qurilmalaridan foydalanuvchilar o'zlari tomonidan foydalanilayotgan qurilmalardan mobil aloqa operatorlari tarmoqlariga radioalaqit hosil bo'lishining oldini olish uchun barcha zarur bo'lgan tashkiliy-texnik choralarini ko'rishlari kerakligi;

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlar-

ga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat'iy man qilinishi ko'rsatilib o'tilgan.

Viloyat hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatlasiz olib kirilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeaterlar) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" davlat unitar korxonasi ("EMMM" DUK), Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati turli diapazonlardagi radioaloqa vositalariga, televideniye va radioeshittirish (TV va RE) dasturlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi radioalaqitlarni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan buyurtmalarini qabul qiladi.

Radioalaqitlarni bartaraf etish ishlari O'zbekiston Respublikasi-ning "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi-ning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" DUK Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati ogohlantiradi:

Respublika hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatlasiz olib kirilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalari (uzoq masofali radiouzatkiqlar, portativ radiostansiyalar va boshqa radiouzatkiqlar vositalari) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

Radioelektron vositalarni respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olishni va o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni rasmiylashtirish masalalari bo'yicha Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

Manzil: Samarqand tumani, "Yoshlik" MFY.
Telefonlar: 66-616-43-45, 66-616-44-15.

SAMARQAND VILOYATI ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV XIZMATI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Toyloq tumanidagi "GRAND PERILLA NERJAVIKA" xususiy korxonasi (STIR: 306897153) o'zining barcha huquq va majburiyatlari (aktiv va passivlari) bilan uning huquqiy vorisi hisoblangan "UNIQUE LEXAN GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 312443519) tarkibiga birlashtirilmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Toyloq tumani Vorsin mahallasi, Vorsin ko'chasi, 392-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Muminov Zoir Xaydarovichga (2025-yil 16-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Srajev Ubaydulla Kadirovichga (2025-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikrova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Zariqov Sharifga (2021-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikrova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Xasanova Sharofatga (2022-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Turayev Izatillo Ismailovichga (2024-yil 28-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Marupov Ismailga (2025-yil 5-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Xamrokulov Yax'yo Muxtarovichga (2018-yil 15-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Abduraxmanov Yashin Mixaylovichga (2024-yil 2-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Ismailov Abdisamatga (2025-yil 16-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Eraliyev Mardiqulga (2024-yil 27-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

BEKOR QILINADI

Jabborova Zarina Muxtor qizi va Tairova Nazira Raimovnalarni o'rtasida davlat qarori 85 Z 473 HA bo'lgan "SPARK" avtotransport vositasi uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasida 2025-yil 23-iyunda tasdiqlanib, 202523969002252 raqam bilan reestrda kiritilgan, 1266449 raqamli gerbli blankada tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston Gandbol federatsiyasi Samarqand viloyati bo'limining guvohnomasi va nizomining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasidan 2022-yilda Muxtorov Shahboz G'iyosovichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99897-918-07-02.

Fuqaro Abdusamiyeva Intizor Abdusamiyevnaning O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomasi (AD 0820554) Samarqand tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99899-380-02-67.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi universitet bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasida sobiq dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi **Amon YAZDANOV**ning vafoti munosabati bilan mahrumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

SAMARQAND

JAHON MADANIY
MEROSINING YURAGIYANGI BOSH
DIREKTORNING
INAGURATSIYA
MAROSIMI

YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi tadbirlari davomida tashkilotga yangi saylangan Bosh direktor Xolid Ahmad al-Ananiyning inaguratsiya marosimi o'tkazildi.

Marosimda Xolid al-Ananiy tantanali qasamyod qildi va tashkilot rahbari sifatida amalga oshiradigan ishlari, YUNESKO maqsad va an'analardan kelib chiqib, oldiga qo'ygan rejalari haqida so'z yuritdi.

– Avvalo, mening nomzodimni qo'llab-quvvatlagan barcha davlatlar vakillariga minnatdorlik bildiraman va ushbu tarixiy marosim qadimiyligi va boqiy Samarqandda o'tayotganidan xursandman, – dedi Bosh direktor Xolid Ahmad al-Ananiy. – YUNESKOning Samarqand mezbonligidagi 43-sessiyasi juda yuqori saviyada tashkil etilgani uchun O'zbekiston rahbariyatiga ham minnatdorlik bildiraman. YUNESKO insonlar uchun tashkil etilgan va ularning manfaatlariga xizmat qiladigan tashkilot, bundan buyon ham shunday bo'lib qoladi, albatta. Men tashkilot rahbarligiga saylov kampaniyasi davrida 65 davlatda bo'ldim, tashkilotimiz maqsadlaridan kelib chiqib, ularning siyosati bilan tanishdim va o'z g'oyalarni bildirdim. Endi rahbar sifatida yana boshqa davlatlar bilan ham yaqindan tanishib chiqaman. Men ishonaman, biz birgalikda ishlab, YUNESKOning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada oshiramiz, tashkilotga a'zo davlatlar hayotida o'z o'rnini yanada mustahkamlaymiz. YUNESKOning missiyasini men professor sifatida ta'lim, odamlarga imkoniyat berish, misrshunos olim sifatida ajdodlarimiz hayoti, merosini o'rganish, muzey direktori va gid sifatida madaniyatning haqiqiy ma'nosi-ni odamlarga anglatish, siyosatchi sifatida qiyin va murakkab vaziyatlarda dunyo xalqlari manfaatlariga birdek xizmat qiluvchi qarorlar qabul qilishda deb his qilayman. Biz qat'iyat, ishonch va umumiy mehnat orqali o'z oldimizga qo'ygan maqsadlar sari harakat qilamiz.

Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminis-tratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva so'zga chiqib, YUNESKO Bosh direktori Ahmad al-Ananiyning tabirkladi va O'zbekiston rahbariyati uning tashkilot rahbari sifatidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashini bildirdi.



YUNESKOning yangi saylangan Bosh direktori Xolid Ahmad al-Ananiy Samarqanddagi madaniy meros obyektlari hamda muqaddas qadamlarni ziyorat qildi.

Jumladan, Registon majmuasi, Shohi Zinda yodgorligi, Amir Temur maqbarasi va jome masjidi hamda Imom Buxoriy majmuasi bilan tanishib, ushbu madaniy meros obyektlarining jahon sivilizatsiyasidagi o'rni, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish yuzasidan fikrlarini bildirdi.

– Samarqand nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo tarixiy-madaniy merosining yuragi, desak mubolag'a bo'lmaydi, – dedi Xolid Ahmad al-Ananiy. – Chunki uning tarixiyligi, ilm-ma'rifat va ma'naviyat o'chog'i bo'lgani, hozirgi kunda ham jahon hamjamiyati diqqat markazida ekani fikrimizning tasdiqidir. Misol uchun, Shohi Zinda haqida kitoblarda o'qiganman, suratlar orqali tanishman, biroq bu tarixiy majmuani o'z ko'zlarim bilan ko'rib, go'yo uni qaytadan kashf qildim. Majmuadagi har bir betakror naqsh va bezaklar o'z davrida hududda xattotlik va me'morlik san'ati rivojlanganini ko'rsatadi va yodgorlikning ahamiyatini yanada oshiradi.

Obidani ziyorat qilish uchun dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan sayyohlar bilan suhbat-



lashar ekanman, Samarqandning global madaniy markaz sifatidagi o'rni oshib borayotganiga yana bir bor amin bo'ldim. Yodgorlik kelajak avlodga o'zining tarixiy qiyofasi, ruhi va ma'naviy qimmatini saqlangan holda yetkazilayotgani esa O'zbekistonda, xususan, Samarqandda madaniy meros obyektlariga bo'lgan hurmat va e'tiborning amaliy ifodasidir.

YUNESKO Bosh direktori Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qilish davomida bu yerda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari bilan ham tanishib, majmua zamonaviy me'moriy uslubda, ulug'

muhaddis olimning maqomiga munosib ravishda qayta barpo etilganini yuqori baholadi. Shuningdek, majmua hududida tashkil etilgan innovatsion muzey faoliyati ham ko'zdan kechirildi.

Muzey Qur'oni karimda ismlari tilga olingan 25 nafar payg'ambar tarixi, Muhammad alay-hissalomning shajarasi va hayoti, shuningdek, hadis ilmining rivojlanish bosqichlari haqida batafsil ma'lumotlar bilan boyitilgani Xolid Ahmad al-Ananiyda katta taassurot qoldirdi.

Samariddin MIRZAYEV,
Shohi Zinda majmuasi rahbari.

Erta ta'lim
rivojlantiriladi

YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasida ta'lim sohasida qator muhim masalalar muhokama qilindi. Ayniqsa, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, YUNISEF hamda "Reggio Children Foundation" tashkiloti o'rtasida Erta ta'lim bo'yicha mintaqaviy tadqiqot va innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risidagi o'zaro anglashuv memorandumining imzolanishi muhim voqealardan biri bo'ldi.

Bu tashabbus har bir bolaning erta yoshdan boshlab yuqori sifatli ta'lim olishini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakat bo'lib, mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning yana bir yorqin ifodasidir.

Shuningdek, YUNESKO shafeligida Toshkent shahrida tashkil etilayotgan Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha II toifali mintaqaviy markaz O'zbekistonning so'nggi yillardagi tashabbuslarining davomi hisoblanadi.

Markaz faoliyati erta bolalik ta'limi sohasida mintaqaviy yetakchilikni mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, siyosat tahlilini amalga oshirish hamda bilim va tajriba almashuvini yo'lga qo'yishga qaratilgan. Bu esa nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Mahbuba RAXIMQULOVA,
viloyati pedagogik mahorat
markazi kafedra mudiri.

YUNESKOning 43-sessiyasi ilk bor so'nggi 40 yil ichida Parijdan tashqarida - Samarqand shahrida o'tkazildi. Bu qaror 2023-yil noyabrda Parijda bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 42-sessiyasida qabul qilingan edi.

Sessiyada 190 dan ortiq mamlakat vakillari, xalqaro tashkilotlar, fan va madaniyat arboblari ishtirok etmoqda. Sessiya doirasida muhim global tashabbuslar muhokama qilindi.

Jumladan, YUNESKO va O'zbekiston hukumati qo'shma tashabbusi bo'lgan Women in Science & Innovation forumi fan va texnologiya sohasida ayollarning ishtirokini kuchaytirishni maqsad qiladi. Bu tashabbus ayollar salohiyatini ilmiy va innovatsion jarayonlarga jalb etish orqali mamlakat taraqqiyotiga yangi sur'at beradi.

Women in Science & Innovation forumi – fan va texnologiya sohasidagi xotin-qizlar ishtiroki va rahbarligini kuchaytirishga qaratilgan xalqaro platforma bo'lib, uning doirasida ayol tadqiqotchilari uchun grant dasturlari va ilmiy almashinuv imkoniyatlari yaratiladi.

Har bir millatning taraqqiyotida ayollar roli hamisha alohida ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvi, harbiy ishlar, yurtni himoya qilish, mulkchilik, qurilish, ishbiarmonlik, ta'lim-tarbiya va adabiyot sohaslarida faoliyat ko'rsatgan Tomir

Ilm va barqaror kelajak
sari qadam

xotin (To'maris), Saroymulxonim, Gavharshod-begim, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar otin kabi vatanparvar ayollar o'z davrida ulkan ishlarni amalga oshirgan.

Xalqimiz azaldan qizlarga, onalarga millat tarbiyachilari sifatida alohida e'tibor qaratib kelgan. Ma'rifatparvar bobolarimiz bejiz "Onalarni o'qit-sak, millatni o'qitgan bo'lamiz", degan g'oyani ilgari surmagan. O'sha qalits davrda millatparvar ziyolilarimiz homiyligida o'zbek qizlarining bir guruhi Germaniyaga ta'lim olishga yuborilgani bu g'oyaning amaliyotga ifodasi edi.

Bugun ham ana shu ilg'or qarash hayotimizning asosiy mezoniga aylandi. Bilim olaman, kasb-hunar egallayman, ilm-fan bilan shug'ullanaman, degan xotin-qizlar uchun imkoniyatlar eshigi ochiq. Ularga maxsus kvotalar ajratilgan, shartnoma to'lovlar davlat budjetidan qoplab berilmoqda va imtiyozli kreditlar taqdim etilmoqda. Bu g'amxo'rliklar qizlarda bilim olishga rag'batni, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishga bo'lgan sa'y-harakatni kuchaytirmoqda.

Hozirda O'zbekistonda ayol olimlar ulushi 36 foizni tashkil qiladi va bu ko'rsatkichni 2030-yilgacha 45 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, yosh qizlar uchun STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta'lim dasturlari asosida yangi grantlar yo'lga qo'yilmoqda. "Navoi Women Scholars Network va Science Sisters" kabi platformalar orqali ayollar ilmiy hamjamiyati shakllanmoqda. Shuningdek, YUNESKOning "L'Oréal – For Women in Science" xalqaro mukofoti doirasida ilk o'zbek nomzodlar ham ishtirok etmoqda.

Bugun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning 49,8 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani ham bu tendensiyaning yaqqol ifodasi hisoblanadi. Fizika yo'nalishida 64 foiz, matematikada 60 foiz, qishloq xo'jaligida 36 foiz, ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida 32 foiz xotin-qizlar ta'lim olmoqda. Bu ayollarning ta'lim va fanga qiziqishi kundan-kunga ortib borayotganini ko'rsatadi.

Samarqand bugun nafaqat madaniyat poytaxti, balki ilm, innovatsiya va barqaror kelajak markazi sifatida tanilmoqda. Bu esa nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning ilmiy-intellektual salohiyatini mustahkamlaydi.

Iroda PARDAYEVA,
Samarqand davlat chet tillar
instituti dotsenti.

Keyingi ikki hafta davomida dunyo hamjamiyatining nigohi insoniyat tamadduni beshiklaridan biri bo'lgan muazzam Samarqandga qaratildi. Chunki qadim va navqiron bu shahar BMTning fan, ta'lim, madaniyat, madaniy meros, turizm tashkiloti - YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga mezbonlik qildi.

Tashabbus:
takliflar ma'qullandi

Prezidentimizning mazkur nufuzli tashkilot bilan hamkorlik yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratayotgan e'tibori samarasi-da 2017-2023-yillarda milliy madaniy merosimizning 14 ta noyob namunasi YUNESKO ro'yxatidan joy olib, insoniyat merosi sifatida e'tirof etildi. Buxoro shahri Ijodkor shaharlar tarmog'iga kiritildi. 2023-yil sentabr oyida YUNESKO Bosh qarorgohida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi nishonlandi. O'zbekiston madaniy boyliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro markazga a'zolikka qabul qilindi. Bugun O'zbekistonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida YUNESKO kafedralari tarmog'i ishlamoqda. 2024-yildan mamlakatimizda ta'lim, madaniyat, raqamli va innovatsion texnologiyalar sohaslarida 7 ta yangi loyiha amalga oshirilmoqda. Turon cho'li va Zarafshon-Qoraqum yo'lagi, ipakchilik, kulolchilik, rubob, "Buxoro amiri devonxonasi arxiv", "Turkiston albomi", "Xudoybergan Devonov fotoalbomi" YUNESKOning maxsus ro'yxatiga kiritilib, hamkorlik ko'lamini yanada kengaydi.

YUNESKOning Samarqandda o'tayotgan tarixiy sessiyasida davlatimiz rahbari muhim tashabbus va qator takliflarni ilgari surdi.

Jumladan, inkiyuziv ta'limni rivojlantirish va sohada sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash, har bir bolaga ta'lim olishi uchun teng

imkoniyatlarni yaratib berish juda muhimligini ta'kidladi. Ta'lim sohasida o'zaro bilim va tajriba almashish uchun xalqaro muloqot formatini yaratish maqsadida Jahon professional ta'lim sammitini o'tkazish, YUNESKO ishtirokida "Sun'iy intellekt – maktab" namunaviy loyihasini amalga oshirish, barcha qit'alarining yetakchi oliygohlari, pedagogika va ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari ishtirokida sun'iy intellekt etikasi bo'yicha xalqaro ekspertlar anjumanini o'tkazish taklif etildi.

Xalq og'zaki ijodiyoti, qo'lyozmalar, arxivlar va qimmatli tarixiy hujjatlar, madaniy ma'lumotlarni saqlash, ularning barcha uchun ochiqligini ta'minlash maqsadida yaratilgan YUNESKOning "Jahon xotirasi" dasturini rivojlantirish, Raqamli meros bo'yicha xalqaro institutni tashkil etish, 2027-yilda Buxoro shahrida hunarmandchilik bo'yicha xalqaro kongressni o'tkazish haqidagi tashabbus ham ma'qullandi.

Davlatimiz rahbari virtual makonda noxolis axborotlarni tarqatish, jamoatchilik fikrini chalg'itish, diskriminatsiya-ga qarshi birgalikda samarali choralar ko'rish jiddiy dasturiga aylanayotganini qayd etib, raqamli transformatsiya muhitida dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning eng yaxshi ijodiy ishlari, multimedia g'oyalarini o'zaro almashish uchun Bolalar madaniy kontenti xalqaro festivalini o'tkazishni taklif qildi.

Ilhom BOTIROV,
O'zLiDeP viloyat
kengashi raisi v.v.b.,
xalq deputatlari viloyat
Kengashi deputati.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 864 nusxada chop etildi. Buyurtma 528. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda